

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

DU6588541584

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **SHARTNOMA FAR YOG'DU SARI №177441-232**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Farg‘ona shaxar tibbiyot birlashmasi tomonidan 14.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Fargona shaxar
yuridik markazi
markaz rahbari:**



Z.R.AKRAMOV

16.11.2022

SHARTNOMA № 177441/232

Ushbu shartnoma bir tomondan “**FAR YOG'DU SARI**” X/K nomidan **rahbar I. O‘. Sobirov** vakilligida kelgusida “**Ta‘minotchi**” va ikkinchi tomondan **Farg‘ona shahar tibbiyot birlashmasi** nomidan **birlashma boshlig‘I M.N.Shokirov** vakilligida kelgusida “**Buyurtmachi**” o‘rtasida har ikki tomonning amaldagi “Nizom” lari va O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. “Ta‘minotchi” “Buyurtmachi”ga ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati **36 800 000 (o‘ttiz olti million sakkiz yuz ming)** so‘m bo‘lgan yumshoq inventar (kelgusida “Tovar” deb nomlanadi)ni spesifikatsiyaga asosan yetkazib beradi.

TTJ ro'yxati shartnomaning ajralmas qismidir

t/r №	Nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	Choyslab (1,5x2,2 o'lchamdagi to'plam)	komplekt	100	103000	10300000
2	Bezi (ikki qavatli taglik. O'lchami 0.7x0.70)	dona	100	42000	4200000
3	Yostiqlik o'lchami 65/65 sm synthphone	dona	100	40000	4000000
4	To'shak o'lchami 0,80/2,2 metr material paxta momig'i 8 kg	dona	100	183000	18300000
	Jami				36 800 000

Xizmat ko‘rsatish shartnomasining umumiy baxosi: **36 800 000 (o‘ttiz olti million sakkiz yuz ming)**
So‘m

II. To‘lov tartibi

2.1. “Buyurtmachi” shartnoma imzolanganidan so‘ng yetkazib berilishi lozim bo‘lgan “Tovar” umumiy qiymatining 30 % ni oldindan 11 040 000_ so‘m miqdorda “Taminotchi” ning hisob-raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘laydi. Yetkazib berilgan “Tovar” lar to‘lovining qolgan, ya‘ni 70 % qismi esa “Buyurtmachi” tomonidan “Tovar” qabul qilib olingandan so‘ng 30 (o‘ttiz) kalendar kuni ichida to‘liq to‘lab beriladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. “Ta‘minotchi” ning huquq va majburiyatlari:

3.1.1. “Buyurtmachi” tomonidan “Tovar” umumiy narxining 30 foizi “Ta‘minotchi” ning hisobraqamiga oldindan to‘langandan so‘ng “Ta‘minotchi” “Buyurtmachi” ni “Tovar” bilan ta‘minlaydi.

3.1.2. “Ta‘minotchi” “Buyurtmachi”ga “Tovar”ni tegishli xujjatlar asosida belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. “Ta‘minotchi” “Buyurtmachi”ga qulaylik yaratish maqsadida “Tovar”ni o‘z transport vositalarida “Buyurtmachi”ning manzilgohiga yetkazib beradi. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati “Ta‘minotchi”ning zimmasida qoladi.

3.1.4. “Ta’minotchi” ning transport vositasida yetkazilgan “Tovar” ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan “Buyurtmachi” “Ta’minotchi” ning vakili ishtirokida “Tovar” yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi “Ta’minotchi” tomonidan 3 kun muddat ichida to’ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o’z vaqtida amalga oshirilmasa e’tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.2. “Buyurtmachi” ning huquq va majburiyatlari:

3.2.1. “Buyurtmachi” “Ta’minotchi” dan shartnoma tuzilgandan so’ng yetkazib berilishi lozim bo’lgan “Tovar” uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to’lagandan so’ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, “Tovar”ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. “Buyurtmachi” “Ta’minotchi” dan ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o’ramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo’lgan “Tovar” larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan “Tovar” sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, “Ta’minotchi” “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq “Tovar” ni qabul qilishni xamda ularning haqini to’lashni rad etib “Ta’minotchi” dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan “Tovar” qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. “Ta’minotchi” tomonidan yetkazib berilgan “Tovar” uchun to’lanishi lozim bo’lgan to’lov haqi “Buyurtmachi” tomonidan o’z vaqtida amalga oshirilmasa, O’zbekiston Respublikasining “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to’lov kechiktirilgan har bir kun uchun to’lanishi lozim bo’lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to’lov summasining 50 foizidan ortiq bo’lmagan miqdorda “Taminotchi” ga penya to’laydi.

4.3. “Ta’minotchi” tomonidan “Buyurtmachi” ga berilgan buyurtmalarni “Buyurtmachi” ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to’liq olishi shart. Aks holda “Buyurtmachi” dan O’zbekiston Respublikasi “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) “Tovar” summasining 5 foizi, tez buziladigan “Tovar”lar bo’yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi.

4.4. “Ta’minotchi” tomonidan “Buyurtmachi” ga yetkazib berilishi lozim bo’lgan “Tovar”larni yetkazib berishni “Ta’minotchi” asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun “Ta’minotchi” “Buyurtmachi”ga yetkazib berilmagan “Tovar” umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 foizidan ortiq bo’lmagan miqdorda penya to’laydi.

V. Fors-major holatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo’yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo’lgan va ularni oldindan ko’ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo’lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog’liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo’lmaydi.

VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog’liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o’rtasida muzokara yo’li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda “Buyurtmachi” joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VII. Shartnoma muddati va uni o’zgartirish tartibi

7.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o’zgartirishlar va qo’shimchalar faqat tomonlarning o’zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo’lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma hududiy G’aznachilik boshqarmasi (bo’limi) tomonidan ro’yxatdan o’tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi.

VIII. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha tomonlar kelishuvi

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so’ng, shartnoma bilan bog’liq korrupsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.4. Xar bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek xar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini kafolatlaydi.

8.5. Shuningdek tomonlar o'rtasida korrupsiya xolatlari sodir etilganda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 12-noyabrdagi 1/4671,01-19/7284,7/01-08-9544-son qaroriga muvofiq vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.6. Bir tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga xamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga xaqli.

IX. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

“Ta'minotchi”

“FAR YOG'DU SARI” X/K

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar
Quva ko'chasi, 88-uy
Bank: TURON BANK Farg'ona filiali
MFO: 00498 INN: 307928832
X/r: 20208000105308485001
Tel: 91 666 11 72

“FAR YOG'DU SARI” X/K rahbari:
I. O. Sobirov




“Buyurtmachi”

Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi

Farg'ona shahar Qirlola ko'chasi 2-uy
Shh/r: 400322860304017073101054002
STIR: 200145074 OKONX:97600
Farg'ona shahar bo'yicha G'aznachilik
boshqarmasi
H/r: 23402000300100001010
Markaziy bank Toshkent shahar
HKKM MFO: 00014 STIR: 201122919



	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan.	
	Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	MUXIDDIN SHOKIROV NAZIRG'ULOMOVICH
	Imzolangan sana	16.11.2022 15:23
	Hujjat kodi	CY4320571736
Hulosa kodi	DU6588541584	